

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA NABIYA IDRISOVNA

JAHON ADABIYOTIDA TALABA VA TALABALIK TASVIRI
SPETSIFIKASI (INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Abdullayeva Nabiya Idrisovna

Jahon adabiyotida talaba va talabalik tasviri spetsifikasi (ingliz va o'zbek adabiyoti misolida) 3

Абдуллаева Набия Идрисовна

Специфика студента и описание студенчества в мировой литературе (на примере английской и узбекской литературы)..... 23

Abdullaeva Nabiya Idrisovna

Student Specificity and Student Life Description in the World Literature (based on the example of English and Uzbek Literature) 43

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 47

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA NABIYA IDRISOVNA

JAHON ADABIYOTIDA TALABA VA TALABALIK TASVIRI
SPETSIFIKASI (INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2019.4.PhD/Fil1058 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	O'rayeva Darmon Saidaxmedovna filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Mo'minov Fayzulla Abdullayevich filologiya fanlari doktori, professor Xajiyeva Feruza Melsovna filologiya fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Samarqand davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil « 15 » iyul soat 09⁰⁰ -dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (311 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « 03 » iyul kuni tarqatildi.
(2023-yil « 03 » iyul dagi №23-22 -raqamli reestr bayonnomasi.)



M.Q.Baqoyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi
o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.M. Jo'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida naturalizm, realizm, tanqidiy realizm, modernizm oqimlari tamoyillariga muvofiq yaratilgan bir qator asarlarda “universitet nasri”ning kelib chiqish asoslari, poetik tadrijiy xususiyatlari, boshqa roman turlari orasida tutgan o‘rni hamda ular bilan umumiy tomonlari, talaba obrazi, an’anaviy obrazlar tizimida talaba obrazining alohida o‘rni, tasvirlanishiga xos hayotiy va badiiy asoslarni aniqlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. U Sharqu G‘arb adabiyotida hamisha jamiyatning harkatlantiruvchi ilg‘or kuchlaridan biri, ilmga intiluvchan faol a’zosi, ammo ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami sifatida ifodalanib kelgan. Shu sababli badiiy adabiyotda talaba obrazining paydo bo‘lish tarixi, tadriji, tasvir va talqin xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish adabiyotdagi real obrazlarning umumiy tadrijiy rivojlanish qonuniyatlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida talaba va ustozlar obrazi, talabalik hayoti, yoshlar ta’lim oladigan o‘quv dargohlari tasviri, universitet (umuman, ta’lim dargohi) hayoti, u bilan bog‘liq makon, zamon, insonlar taqdiri, o‘zaro munosabatlari tasviri va talqini nafaqat nasrda balki, she’riy hamda dramatik turda yaratilgan asarlar talqiniga doir keng ko‘lamli izlanishlar olib borilgan. Shu doirada talaba obrazi ingliz va o‘zbek adabiyoti namunalarida ham uchraydiki, har ikkala adabiyotda uning o‘rni, genezisi, milliy tabiati, poetik-tipologik xususiyatlari, spetsifik belgilarini qiyosiy aspektda yoritish turli tizimli bu til vakillarining badiiy ijodiga xos mushtarak jihatlarni bilib olish uchun zarurdir. O‘zbek adabiyotida madrasa talabasi bilan zamonaviy talaba psixologiyasi, ular ta’lim oladigan muhit va sharoit, oilaning ko‘magi, talabaning atrofida gilar bilan (ustoz-shogird, do‘stlik, sevgi) munosabatlari tasviri va talqinida milliy mental belgilar borligi uni qiyosiy o‘rganish va ilmiy talqin etishga imkon yaratadi.

Yurtimizda “Milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimiz qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim”¹ deb ta’kidlanishi filologlar uchun ham bevosita tegishlidir. Binobarin, mustaqillikka erishilgandan buyon o‘zbek adabiyotini jahon adabiyoti kontekstida tadqiq qilish dolzarb muammolardan biriga aylandi. Milliy adabiyotimizda erishilgan natijalar bevosita jahon namoyandalari ijodiga xos badiiy tajribalar asosida qiyosiy tadqiq qilinishiga e’tibor kuchaytirilmoqda. Bu boradagi ishlarni amalga oshirishda esa hukumatimizning adabiyot rivojiga e’tibori va g‘amxo‘rligi dasturulamal vazifasini o‘tamoqda. Qolaversa, yosh avlodga e’tibor adabiyotda hamisha yetakchi vazifalardan biri bo‘lib, har bir milliy adabiyotda unga alohida badiiy-estetik hodisa sifatida yondashib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtlaridan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi / Xalq so‘zi, 2018-yil, 29-dekabr, №271-272.

mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida talaba obrazi va talabalik hayoti tasviri hamda talqini masalasiga qiziqish mavjud. Bu borada rus adabiyotshunosligida K.A.Rozanovning "Yangi davr rus adabiyotida talaba va talabalik hayoti" mavzusida yaratilgan kichik tadqiqoti bevosita tadqiqot mavzuimizga yaqinligi bilan alohida e'tiborni tortadi.²

Shuningdek, Kim Yuliya Vitalyevnaning "Ilk Anglo-Amerika akademik romanining badiiy xususiyatlari (1950-x yillar)"³ mavzusidagi dissertatsiyasi "akademik romanlar", Luksemburg Aleksandr Mixaylovichning "Angliya va Amerika universitet nasri evolutsiyasi va tipologiyasi muammolari"⁴ haqidagi tadqiqoti, Pitir Antenening "Universitet romanning turlari: Angliya va Amerika janrini qiyosiy o'rganish"⁵ nomli monografiyasi, shuningdek, "universitet nasri"ning kelib chiqish asoslarini, poetik tadrijiy xususiyatlarini, boshqa roman turlari orasida tutgan o'rnini hamda ular bilan umumiy tomonlarini ochishga qaratilgan M.Bosko, K.Anderson, J.Telin, A.Bogen, I.Karter⁶ izlanishlari ayricha diqqatni jalb etadi.

O'zbek adabiyotshunosligida madrasa, institut, universitet muhiti va

² Розанов К.А. Студент и студенческая жизнь в русской литературе Нового времени // Филологические этюды. Выпуск 12. Часть 1. – Саратов. – С.108.

³ Художественные особенности раннего Англо-Американского академического романа (1950-х гг.): Дисс. магистра. – М., 2019.

⁴ Люксембург Александр Михайлович. Англо-Американская университетская проза. Проблемы эволюции и типологии: Автореф.канд. филол. наук. – М., 1989.

⁵ Antene P. Campus Novel Variations: A Comparative Study of an Anglo -American Genre. Olomouc: Palacky University Olomouc. – 2015. – 176 p.

⁶ Bosco M., Connor K. Lewiston. Academic Novels as Satire: Critical Studies of an Emerging Genre: The Edwin Mellen Press. – 2000. – 164 p., Anderson Ск К., Thelin J. R. Campus Life Revealed: Tracking Down the Rich Resources of American Collegiate Fiction // The Journal of Higher Education. 2009. Vol. 80. № 1. P. 106-113. Bogen A. Women's University Fiction, 1880-1945. Abingdon: Routledge, 2015. 240 p., Carter I. Ancient Cultures of Conceit: British University Fiction in the Post War Years. London: Routledge, 1990. 317 p

sharoitining real tasviri aks ettirilgan, ularda tahsil oluvchi yigit-qiz talabalar, yosh olimlar, dars beruvchi domlalar, dotsent-professorlar, o'qituvchilar obrazi tasvirlangan, ularning o'zaro munosabatlari, bilim va ilm olishga intilishi, jamiyatni rivojlantirish yo'lidagi orzu-intilishlari talqin qilingan asarlar tabiati hali maxsus o'rganilmagan bo'lsa-da, ular bilan bog'liq ayrim ilmiy mulohazalar shunday tasvir va talqinga ega asarlar yaratgan shoiru adiblar to'g'risida fikr yuritilgan ishlarda yo'l-yo'lakay uchraydi.⁷

Bundan ko'rinadiki, ingliz va o'zbek ijodkorlari asarlarida talaba obrazi hamda talabalar hayoti aks ettirilgan asarlarni struktural, badiiy-estetik, ifoda uslubi, milliy belgilari, tili nuqtayi nazaridan o'rganish qiyosiy adabiyotshunosligimiz oldida turgan dolzarb mavzulardan biridir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan "O'zbek adabiyotini jahon adabiyoti kontekstida o'rganish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek adabiyotida talaba, talabalik tasviri spetsifikasi, evolutsiyasi hamda poetikasidagi umumiy xususiyatlarni aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon adabiyotida, jumladan, ingliz va o'zbek adabiyotida talaba obrazi, talabalik hayoti tasviri hamda talqini aks etgan asarlarni, ularning janrini, yaratilish maqsadi va tarixini aniqlash;

ingliz va o'zbek adabiyoti rivojiga jahon miqyosidagi "universitet romani", "universitet nasri", "filologik roman", "akademik roman", "ilmiy roman"larning ta'sirini asoslash;

ingliz va o'zbek adabiyoti obrazlari tizimida talaba obrazi genezisi, hayotiy asoslari, tadriji, tavsifi, talqini, tasviri, portreti, nutqi berilishiga xos realistlik belgilarni ingliz va o'zbek adabiyoti namunalari qiyosida ochish;

har ikkala adabiyotda talaba obrazining milliy psixologiyasini, ular ta'lim oladigan muhit va sharoit, oilaning ko'magi, talabaning atrofida gilar bilan (ustoz-shogird, do'stlik, sevgi) munosabatlari tasviri va talqinidagi milliy belgilarni ko'rsatib berish;

ingliz va o'zbek adabiyotida talaba obrazining bosh qahramon yoki yordamchi personaj sifatidagi badiiy o'rni va vazifalarini, ko'pincha antihero (o'z-o'ziga zid qahramon) bo'lib kelishini dalillash.

Tadqiqotning obykti sifatida ingliz, o'zbek va jahon adabiyoti namunalari syujetida talaba obrazi uchraydigan asarlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek adabiyotidagi talaba obrazi va talabalik tasviri hamda talqiniga xos spetsifik, tipologik xususiyatlar tashkil etadi.

⁷ Умурув Х. Проблема психологизма и узбекский роман: Дисс... доктора филол. наук. – Т., 1983. – 362 с.; Ҳамрақулова Х. Абдулла Қаҳҳорнинг "Сароб" романида шахс фожиаси талқини: Филол. фанлари номз... дисс. автореф. – Т., 2004. – 26 б.; Холмуродов А. Одил Ёқубов романларида психологизм: Филол. фанлари номз. ... дисс. – Т., 1991. – 153 б.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, ijtimoiy-psixologik, funksional-interpretatsion, lingvokulturologik va struktural tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

qiyoslanayotgan tillar adabiyotidagi “universitet romani”, “akademik roman”, “ilmiy roman”, “filologik roman”larning jahon adabiyotida shakllanish omillari, janriy tabiati, badiiy syujet qurilishi “universitet nasri”ning roman, qissa, hikoyalarga xos ramziy, marosimiy, psixologik va shakliy (struktural) yo‘nalishlarini belgilashi asoslangan;

ingliz va o‘zbek adabiyoti obrazlari tizimida talaba obrazining o‘rni, asosan antihero sifatida, ya‘ni giyohvand, alkogol, buzuq, jinoyatchi, qotil qiyofalarida gavdalantirish sabablari, tarbiyaviy ahamiyati, portreti, muomala va kiyinish madaniyati, nutqi berilishiga xos realistik belgilari, individuallik hamda umumiylik, yaqinlik va mushtaraklik qirralari aniqlangan;

ingliz va o‘zbek adabiyotida talaba obrazining milliy psixologiyasi, ular ta‘lim oladigan muhit va sharoit, oilaning ko‘magi, talaba atrofidagi yordamchi personaj (ustozlari, do‘stlari, raqiblari, sevgilisi, yotoqxon xizmatchilari) bilan ilmiy, axloqiy, ishqiy munosabatlari, milliy hamda mental xususiyatlari lingvopoetik va lingvomadaniy aspektida namoyon bo‘lishi dalillangan;

“universitet nasri”ga oid asarlarda ijtimoiy strukturani badiiy strukturada qayta yaratish tendensiyasining yetakchilik qilishi, mazkur tendensiyaning individual-shaxsiy taqdir, sinflar, millatlar, mamlakatlarning tarixiy harakatlari jarayonida namoyon bo‘lishini asardagi voqealar rivojida zohirlanishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek adabiyotida talaba obrazi spetsifikasi hamda tipologiyasi kompleks tadqiq etilgan;

jahon adabiyotida talaba obrazi yaratilishida har bir xalqning o‘ziga xos turmush tarzi, yashash sharoiti, orzu-intilishlari, milliy va badiiy an‘analari, poetik qonuniyatlari muhim rol o‘ynaganligi ilmiy jihatdan asoslangan;

ingliz va o‘zbek adabiyotida talaba obrazi tasviri va talqinidagi o‘xshash hamda farqli jihatlarning aniqlanganligi jahon xalqlari adabiyoti obrazlar tizimida real obrazlar evolutsiyasini, hayotiy-tarixiy ildizlarini tadqiq etishda muayyan faktik asos vazifasini o‘tashi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada muammoning aniq qo‘yilgani, chiqarilgan xulosalarning tasniflash, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, ijtimoiy-psixologik, funksional-interpretatsion, lingvokulturologik va struktural tahlil usullari bilan asoslangani, turli tizimli tillarda so‘zlovchi, o‘ziga xos mentalital xususiyatlari jihatidan farqlanuvchi, yer kurrasining boshqa-boshqa qit‘alarida yashovchi xalqlar bo‘lishiga qaramay, ingliz va o‘zbeklar adabiyotida talaba obrazi tasviri va talqinida yaqinliklar borligi isbotlangani, bunda ushbu hodisaning ishonchli manbalarga tayanilib yoritilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, chiqarilgan nazariy xulosalar ingliz va o‘zbek adabiyoti obrazlari tizimida talaba obrazining tutgan o‘rni, genezisi, poetik evolutsiyasi,

tasvirlash va badiiy talqin qilishdagi o'ziga xosliklarni bilib olishda muhim nazariy ahamiyat kasb etishi barobarida ingliz va o'zbek adabiyotidagi boshqa real obrazlarni ham qiyosiy o'rganishga keng yo'l ochish imkonini berishi bilan xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ingliz va o'zbek adabiyotidagi talaba obrazini qiyosiy o'rganish orqali chiqarilgan xulosa va umumlashmalardan, aniqlangan materiallardan oliy o'quv yurtlarida adabiyotshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiyotshunoslik nazariyasi, jahon adabiyoti o'quv kurslari, darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda, ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini olib borishda, bitiruv malakaviy va magistrlik ishlarini bajarishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o'zbek adabiyotida talaba obrazi va talabalik tasviri spetsifikasini aniqlash jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

qiyoslanayotgan tillar adabiyotidagi "universitet romani", "akademik roman", "ilmiy roman", "filologik roman"larning jahon adabiyotida shakllanish omillari, janriy tabiati, badiiy syujet qurilishi "universitet nasri"ning roman, qissa, hikoyalarga xos ramziy, marosimiy, psixologik va shakliy (struktural) yo'nalishlarini belgilashiga oid olingan ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2013-2015-yillarda bajarilgan FA-A1-G007 "Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2022-yil 28-noyabrdagi №481/1-son ma'lumotnomasi). Natijada ingliz va o'zbek adabiyotining talaba obrazi talqin va tadqiqi aks etgan namunalardan mavjud dasturlar va qo'llanmalarda keng foydalanilib, ta'lim jarayonida tarbiya metodlari samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

ingliz va o'zbek adabiyoti obrazlari tizimida talaba obrazining o'rni, asosan antihero sifatida, ya'ni giyohvand, alkogol, buzuq, jinoyatchi, qotil qiyofalarida gavdalantirish sabablari, tarbiyaviy ahamiyati, portreti, muomala va kiyinish madaniyati, nutqi berilishiga xos realistik belgilari, individuallik hamda umumiylik, yaqinlik va mushtaraklik qirralariga oid nazariy va amaliy materiallardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2016-2018-yillarda amalga oshirilgan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" innovatsion tadqiqot loyahasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 7-yanvardagi №15/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada ingliz va o'zbek adabiyotshunosligi, matnshunoslik fanlari rivoji, o'qituvchilarning lingvistik, kommunikativlik qobiliyatini oshirish, ta'lim tizimi jarayonini mustahkamlash va xalqarolashtirishga yangi yondashuvlarni aks ettiruvchi uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishga erishilgan;

ingliz va o'zbek adabiyotida talaba obrazining milliy psixologiyasi, ular ta'lim oladigan muhit va sharoit, oilaning ko'magi, talaba atrofidagi yordamchi personaj

(ustozlari, do'stlari, raqiblari, sevgilisi, yotoqxonalar xizmatchilari) bilan ilmiy, axloqiy, ishqiy munosabatlari, milliy hamda mental xususiyatlari lingvopoetik va lingvomadaniy aspektlarda namoyon bo'lishiga oid nazariy va amaliy materiallardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2014-2016-yillarda amalga oshirilgan Tempus Project 544161- TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL "Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes" innovatsion tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 7-yanvardagi №13/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijalar oliy o'quv yurtlarida adabiyotshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik fanlari bo'yicha ma'ruzalar o'qish, maxsus kurslar o'tish, innovatsion o'quv qo'llanmalar yaratish sifati oshirilishiga xizmat qilgan;

"universitet nasri"ga oid asarlarda ijtimoiy strukturani badiiy strukturada qayta yaratish tendensiyasining yetakchilik qilishi, mazkur tendensiyaning individual-shaxsiy taqdirlar, sinflar, millatlar, mamlakatlarning tarixiy harakatlari jarayonida namoyon bo'lishini asardagi voqealar rivojida ko'rish mumkinligiga bilan bog'liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida "Til – millat ko'zgusi", "Assalom Buxoro", "Adabiy muhit" teleko'rsatuvlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 22-sentabrdagi №1/238-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur ko'rsatuvlarning ilmiy-ommaboplik xususiyati oshirilgan, qiziqarli tahliliy materiallar teletomoshabinlar e'tiboriga havola qilingan va u yangi manbalar bilan takomillashgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 13 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 12 ta maqola, ulardan, 5 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 150 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, o'rganilganlik darajasi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy, amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Universitet romani"** hamda **"akademik roman"**

tushunchalarining mohiyati va janriy belgilari” deb nomlangan birinchi bobi ikki fasldan iborat. Bobning birinchi faslida “Universitet romani” hamda “akademik roman”lar genezisi va asosiy belgilari tahlil qilingan.

Talabalar haqiqiy siyosiy va ijtimoiy kuch sifatida ham harakat qilishgan. Ular muhim ijtimoiy muammolarni hal qilishda ishtirok etishgan. Shubhasiz, bunday jihatlar tarixda muhim ahamiyatga ega bo‘lgani uchun universitet yoshlarini badiiy adabiyotda ham obrazlantirishga asos yaratgan. Shu asosda “universitet romani” hamda “akademik roman” alohida janr sifatida paydo bo‘ldi.

“Universitet” romani jahon adabiyotida, asosan, Angliya-Amerika adabiyotida rivojlangan. Talabalar hayoti Amerika adabiyotida juda ham mukammal tarzda berilgan. Janrning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, universitet hayotini tashkil etish tamoyiliga ko‘ra, ushbu hodisaning ikkita turi mavjudligini qayd etish mumkin:

1. Campus novel - talabalarga emas, balki o‘qituvchilarga qaratilgan romanlar ko‘pincha kampus romani deb ataladi va alohida janr hisoblanadi.

2. Varsity novel - uning asosiy harakati universitet shaharchasida va uning atrofida bo‘lib, o‘qituvchilarga emas, balki talabalarga qaratilgan.

Britaniya “universitet nasri”ning yana bir muhim jihati – urushdan keyingi Britaniya jamiyatining o‘zgarishi munosabati bilan faollashgan ijtimoiy sinfiy muammolarga nisbatan sezgirligida ko‘rinadi. O‘tgan asrning 60-70-yillarida Buyuk Britaniyada universitetlar sonining tez o‘sishi oliy universitet fonini oddiy odamlardan ajratib turadigan katta to‘siqlarining katta ijtimoiy harakatchanligiga olib keldi. Jinsiy inqilobning oqibatlarini va ayollarning gender tenglik uchun kurashi ham universitet hayotini o‘zgartirishga yordam berdi.

“Akademik roman” bir necha asrlar davomida shakllangan universitet tasviri, professor-o‘qituvchilar va talabalar hayoti haqidagi xilma-xil asarlar oqimidan alohida janr sifatida ajralib chiqdi. Uni ko‘proq urushdan keyingi davr adabiyotning mahsuli deyish mumkin. “Akademik roman”ning kelib chiqishida nafaqat “universitet romani”, balki “ilmiy roman”ning ham ta’siri bor.

“Universitet romani” hamda “akademik roman”larning eng muhim janriy belgilarini birgina Anglo-Amerika “universitet romani” janriga mansub bo‘lgan asarlardan biri Tom Vulfning “Men Sharlota Simmons” (“I am Charlotte Simons”) romani misolida ham ko‘rsatib berish mumkin. Chunki, manbalarda aytilishicha, Tom Vulf bu asarni yozish uchun to‘rt yil universitetda (kampusda) yashagan va talabalar hayotini to‘liq o‘rganib, haqiqiy hayotni ushbu o‘quv dargohidagi dalillarga asoslangan holda voqelik tasvirlariga yondashgan.

“Universitet romani”ning bir qancha asosiy xususiyatlari bor. O.Y.Ansiferova qayd etishicha, “universitet romani” ning asosiy xususiyati universitet muhitiga mos kelmaydigan o‘ziga xos turdagi qahramon-ziyolining mavjudligi, “universitet jamoasining ichki ziddiyati”ni ochib berish usulida yozilishi bilan ham belgilanadi.⁸

Bizningcha, “universitet romani”ning eng muhim janriy belgilari quyidagilarda ko‘rinadi: talabalarning yurish-turishi, o‘qish va bilim olishga munosabati tasviri,

⁸ Ansiferova O. Y. Universitetskiy roman: jizn i zakoni janra // Voprosi literaturi. 2008. № 4. S. 264-295.

talabalarning kiyinish va muomala madaniyati tasviri, talabaning qanday oilaviy muhitdan chiqqanligi, uning moddiy ahvoli talaba va o‘qituvchi (ustoz-shogird) munosabati yoritilishi, talaba portreti va psixologiyasi tasviri, universitet makoni va unga qarashli yotoqxonalaridagi hayot tasviri, talabalar obrazining markaziy o‘rinda berilishi.

O‘zbek adabiyoti asarlarida ham institut, universitet tasviri ko‘p keltirilgan bo‘lib, yozuvchilar ularni o‘ziga xos rang-barang poetik jozibadorlikda tasvirlashgan. Dastlab Sadridin Ayniyning “Esdaliklar” asariga nazar tashlasak, unda keltirilgan Buxoro madrasalarining hujralari tasviri alohida e‘tiborni tortadi. Asarda adib madrasalarning ikki qavatli ekanligini va ular O‘rta Osiyo madrasalariga tenglashtirilgani, bu madrasalardan ham Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlarda andoza olib, qurilganligi ta’kidlagan. “U madrasalar ichki-tashqi keng sahnga, baland va mustahkam devorga, hashamatli toq-ravoq va guldastalarga ega bo‘lib, ba’zilarining peshtoqlari, gumbazlari va devorlari rang-barang koshinlar blan bezatilgan bo‘lar edi”.⁹

Pirimqul Qodirovning “Uch ildiz” asarida keltirilgan tasvirlarga nazar tashlansa, bevosita zamonaviy universitet, auditoriyalar va yotoqxonalarining tasviri namoyon bo‘ladi. “Ilk ko‘klam yog‘dulari o‘quv binosining uzun koridorlarini ravshanlantirib yuborgan, qishda kunduzi ham yoqib qo‘yiladigan chiroqlar endi o‘chirilgan edi. Bu koridorda tanaffus vaqti odam qaynaydi. Lekin Mahkam bir guruh faollar bilan yoshlar tashkiloti kengashidan chiqqanda koridor bo‘shab qolgan va u boshidan bu boshigacha bahuzur ko‘rinib turardi. Qator ketgan auditoriyalar yopiq, ichkaridan bosinqi g‘ovuri eshitilardi”.¹⁰

O‘zbek adabiyotida ko‘pincha talabalarning milliy sharoitdan kelib chiqib, paxta mavsumiga jalb qilingani, uning talabalar hayotidagi salbiy oqibatlari, domlaning talaba qizga nojo‘ya munosabati, talabalarning nikohlanmay, oila qurmay bolali bo‘lish fojealari yoritilgani kuzatiladi. Bu haqda ishimizning uchinchi bobida maxsus to‘xtalamiz.

Xullas, asarlarda uchraydigan bu kabi tasvirlar universitet va institutlarning bosqichma-bosqich rivojlanib kelganini, talabalar hayotidagi o‘zgarishlarni anglashga xizmat qilish bilan muhimdir.

Birinchi bobning ikkinchi faslida “Universitet roman”larida qahramon va talaba leksikasi masalasi tadqiq etilgan. Professor-o‘qituvchilar, talabalar obrazi, universitet hayoti tasviri mavjudligi “universitet romani” janriy mansubligi haqida gapirish uchun yetarli emas, albatta. Talabalar haqida Anglo-Amerika tilida yaratilgan romanlar kabi bu tip asarlarning tarixi, odatda, universitet yillari o‘qish voqealari bilan chegaralanmaydi. Chunki ularda qahramonlar hayoti faqat universitet devorlari bilan chegaralangan hududdagina emas, undan tashqarida ham kechishi mumkin. Talaba haqidagi roman qahramonning universitetda vaqtinchalik qolishini va uning hayoti tasviri asarda muqarrar ravishda markaziy o‘rin tutib, o‘ziga xos tomonlari bilan ajralib turishini anglatadi.

⁹ Айний С. Эсдаликлар. – Т.: ЎзССР давлат нашриёти, 1963. – Б.154.

¹⁰ P.Qodirov. Uch ildiz. – Т.:Yangi asr avlodi, 2019. – В.

Donna Tartning “The Secret history” (“Sirli tarix”) asarida quyidagi talaba tiplari uchraydi: giyohvand talaba, ichuvchi talaba, besoqolboz talaba, qotil, jinoyatchi talaba. Badiiy asardagi talaba qahramonning nutqi uning adabiy portretiga ham mos holda keltiriladi. Shuning uchun uning tashqi va ichki nutqi orqali psixologik portreti namoyon bo‘ladi.

Asosiy bosh qahramon talaba bo‘lgan asarlarda ko‘pincha talaba hayotiga daxldor ilm, fan, ta’lim, ma’rifat, dars, ustoz, domla, institut, universitet, auditoriya, talaba, student, tolib, kitob, daftar, qalam, ruchka, imtihon, ma’ruza, stipendiya, rektor, dekan, dekanat, sessiya, yotoqxon, o‘quv zali va hokazo singari so‘z, so‘z birikmalari talabalar leksikasini tashkil qilishi oydinlashadi.

“Universitet roman” janrida yozilgan asarlarda oliy ta’lim dargohi bilan bog‘liq shunday so‘zlar ishlatiladiki, ular o‘zbek adabiyoti asarlarida mavjud emas. Ingliz adiblari asarlarida “akadem” so‘zi ko‘p ishlatilishi kuzatiladi. Masalan, *akademik yil, akademik shahar, akademik qiyofa* kabi.

“Tom Braun Oksfordda” (“Tom Brown in Oxford”) asarida Angliya ta’limi, universitet hayotiga bog‘liq turli-tuman so‘zlarni talabalar nutqida uchratish mumkin:

1. Rus tilida “nastavnik”, ingliz tilida “tutor” tushunchasi kollejdagi profesor-o‘qituvchi nomlanishlaridan birini anglatadi.

2. Senate house – o‘qitish ingliz tilida olib boriladigan ba’zi universitetlarning asosiy ma’muriy binosi nomi.

3. Jentelmen-kommonerlar (Gentelmen-commoners) Oksford va Kembrij universitetlaridagi imtiyozli talabalar guruhining nomi bo‘lib, ular oddiy talabalarga qaraganda o‘qish va turar joylari uchun belgilangan stavkadan ancha yuqori haq to‘laydigan talabalardir. Jentelmen-kommonerlar XIX asrda yo‘q qilindi.

O‘zbek adiblari asarlarida ham talabalar obrazi keng tasvirlangan, ammo ularda talabalarning nutqi bir-biriga o‘xshamagan ko‘rinishlarda berilgani e’tiborni tortadi. Biroq talabalar nutqida, asosan, bilim olish, ta’lim olishga oid so‘zlar berilgani ularga xos muhim o‘xshash jihatlardan biridir. Masalan, birgina oliy ta’limda faoliyat yurituvchi professor-o‘qituvchilarning o‘z vazifasiga ko‘ra turlicha nomlanishi badiiy asarlarda ham ifoda etilgan. Jumladan, lektor – oliy ta’limda ma’ruza o‘qiydigan ustozdir: “Auditoriya suv quyganday jim-jit bo‘lib qoldi. Lektor chetga qarab, avvalgiday past tovush bilan gapirdi”.¹¹

Shunisi borki, talaba qahramonlarning nutqida ilmiy va ta’lim tizimiga xos ruscha-baynalmilal o‘zlashma so‘zlar ko‘proq uchraydi. Biz ularni quyidagicha guruhlashni lozim topdik:

1. Oliy ta’limda dars beruvchi kishilar nomi: *assistent, dotsent, kandidat, doktor, professor, akademik*. Masalan: “Bu kishi institutda paxta seleksiyasidan dars bergan – biologiya fanlari kandidati ekanligini ham bilar edi”.¹²

2. Oliy ta’limda o‘quv-tarbiya jarayonini boshqaruvchi kishilar nomi: *rektor, prorektor, dekan*. Masalan: “Progul deydigan bo‘lsa, dekanga kirib aytamiz”.¹³

¹¹ Qodirov P. Uch ildiz. – T.: Yangi asr avlodi, 2019. – B.14.

¹² Мирмуҳсин. Асарлар. 4 жилдлик. – Т.: Ф.Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б.60-80.

¹³ O‘sha asar. – B.80.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz adabiyotida talaba obrazi evolutsiyasi va poetik vazifalari”** deb nomlangan bo‘lib uchta fasldan iborat. Bobning birinchi faslida jahon va ingliz adiblari ijodida talaba obrazini tasvirlashdagi yaqinlik hamda o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Jahon adabiyotida yoshlarning talabalik davri, undagi shaxsiy hayoti, talabalik muhitidagi faoliyati realistik tasvirlangan bir qancha asarlar mavjud. Ular bu jihatdan turli motivlarga egaligi ko‘rinadi. Jahon realistik adabiyotida talabalar hayoti turlicha yoritilgan. Lekin talaba obrazi romantizm adabiyoti namunalarida ham uchraydi.

XIX asr boshlaridagi nemis romantizm adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan bo‘lgan Ernst Teodor Amadey Gofmanning “Tsinnober laqabli mitti Saxes” yoki “Kichkina Saxes” nomli ertak shaklida yaratilgan satirasida ham talabalar obrazi keltirilgan.

Jahon adabiyotidagi kabi ingliz adabiyotida ham talaba obrazi tasvirida uning portreti, xarakter-xususiyati ifodasiga alohida yondashilgani kuzatiladi. Garchi bunda milliy mentalitet ta’siri tufayli ayrim farqliklar bo‘lsa-da, aksariat holatda o‘zaro yaqinlik, o‘xshashlik jihatlari ko‘zga tashlanadi. Masalan, rus adabiyotida F.Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” romani bosh qahramoni ham talabadir. Asarda Raskolnikov ismli talabaning taqdiri yoritilgan.

Jahon adabiyotida talaba obrazi aks ettirilgan aksariyat asarlarda ularning jinoyat yo‘liga kirib qolishi asosiy motivlardan biri sifatida talqin etilgani ko‘rinadi. Bunga F.Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” asaridagi Raskolnikovning jinoyati yorqin dalil bo‘la oladi. O‘z kambag‘alligiga chiday olmagan Raskolnikov oson pul topish maqsadida keksa sudxo‘r kampirning o‘limiga sababchi bo‘ladi.

Shuningdek, talaba qotilligi motivi Jozef Konradning “G‘arbiga nazar” asaridagi talaba Xaldin faoliyati bilan ham bog‘langan. U bosh vazir o‘limiga sababchi bo‘lib, qotil jinoyatchiga aylanadi.

Donna Tartning “Sirli tarix” asarida esa bir guruh talabalar uyushgan jinoyatchilikni sodir etishadi.

Jahon adabiyotida talaba yoshlarning iqtisodiy yetishmovchilik sababli mablag‘dan qiynalishi motivi ham alohida o‘rin tutadi. Ko‘pincha bunga talabaning yarim yoki chin yetim bo‘lishi sabab qilib ko‘rsatiladi. Masalan, F.Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” romanidagi Raskolnikov ham otasiz. Uning oyisi va singlisidan bo‘lak hech kimi, boquvchisi yo‘q.

Jahon adabiyotida talabalar obrazini, ularning psixologik xususiyatlarini ko‘pgina yozuvchilar turlicha yoritishgan. Ma’lumki, talabalarning axloqiy tamoyillari, xarakter-xususiyatlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, Ivlin Voning “G‘arbiga nazar” asari qahramoni talaba Razumov kamgap inson sifatida gavdalanadi. “Razumov seems to be quiet, even when he is deeply affected, he looks serious”. Uning shaxsiy xususiyatlaridan biri – ayollarni yoqtirmasligi. “What do I have to do with women? I don't care what you think about him. Let them do what they want. I'm not attentive them at all”.¹⁴

¹⁴ O‘sha asar. –B. 105.

Razumov xarakteriga o'xshaydigan qahramonlardan yana biri F.Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo" asaridagi Raskolnikov ham odamovi, insonlarni yoqtirmaydigan xarakter-xususiyatga ega. "U o'z xayollariga g'arq bo'lib ketar, chuqur o'yg'a tolar, uy bekasigina emas, umuman, hech kimsani ko'rgisi kelmasdi, birov bilan yuzma-yuz uchrashib qolishdan cho'chirdi".¹⁵

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli "Ingliz ijodkorlari asarlarida talabalar obrazining paydo bo'lishi va badiiy talqin xususiyatlari" deb nomlanadi. Har bir davrda yozilgan asarlarda talaba obrazi bir-biridan tubdan farq qiladi. Talaba obrazidan real hayot voqealarini, universitet hayotini tasvirlash uchun foydalanilgan. Aksariyat asarlarda talabalarning pala-partish hayoti, ularning ba'zan hayotga yengil-yelpi qarashi, yetarlicha bilim ololmasligi, o'quv yurtini tugatmay qolib ketishi, bunga ayolarning, jamiyatning, pulning salbiy ta'sir ko'rsatishi tasvirlanadi.

Ingliz adabiyotida universitet, ilmiy hayot, professor-o'qituvchilar, talabalar ilk bor Djefferi Choserning "Kenterberiy hikoyalari"da yoritilgan. Unda ilk talaba obrazi uchraydi. Ayniqsa, asarning "Tegirmonchi hikoyasi"dagi talaba obrazi o'z xonadoniga xiyonatkor, egasiga vafosiz sifatida tasvirlangan.

Ingliz adabiyotida talaba obrazining yana bir mumtoz namunasi mashhur ingliz shoiri va dramaturgi U.Shekspirning "Gamlet" (XVI asr) tragediyasida uchraydi. U Gamletning do'sti, kambag'al student Goratsiodir.

XVIII asrdan boshlab asta-sekinlik bilan talaba obrazi bevosita universitet ichki hayotida gavdalanirildi. Masalan, Tobias Smolletning "Peregrin Pikl sarguzashtlari asarida" Peregrinning Oksfordda o'qigan talabalik davri tasvirlangan.

U.M. Tekkerining "Pendinis tarixi" ("The History of Pendinisse") nomli asarda (1848-1850) Artur Pendinisning talabalik yillari aks ettirilgan.

"E'tibordan chetda qolgan Jud" ("Jude the Obscure", 1825) asari Tomas Hardi qalamiga mansubdir. Bu asar qahramoni Djud Fouli ilm olishni juda xohlaydi. Ammo uning hayoti ayanchli yakun topadi.

Tom Xyuzning "Tom Braun Oksfordda" ("Tom Brown in Oxford") asari XIX asr "universitet romani" janrida yaratilgan bo'lib, unda Tomning talabalik davridagi hayoti tasvirlangan. O'sha davrdagi universitetlar, talabalar holati shu asar orqali namoyon etilgan. "Tom Braun Oksfordda" asarida hozirgacha mashhur Okford universitetining an'analari va urf-odatlarini, talabalarning kundalik hayoti tasvirlangan.

Tom Sharpning "Porthouse Blue" (1974) nomli asari voqealari Oksfordning to'qima nomi bo'lgan Porterhouseda bo'lib o'tadi. Bu asarda kollejning an'analari, u yerdagi talabalar hayoti ko'rsatib o'tilgan.

Malkolm Bradberining "Tarixiy shaxs" ("The History man") asari "universitet romani" janrida yozilgan satirik asar hisoblanadi. Hovard va Barbaraning talabalik davri bilan bir qatorda, ularning keyinchalik turmush qurgan hayoti tasvirlangan bu asarda o'sha davrdagi universitet talabalari va domlari qattiq kulgu ostiga olingan. E.M.Forsterning "Uzoq sayohat" ("Long Journey") asari qahramoni Rikki juda aqlli,

¹⁵ Dostoyevskiy F.M. Jinoyat va jazo. Roman. – T.: Kamalak, 2019. – B. 3.

og'ir-bosiq, iste'dodli, ishonuvchan, sodda Kembrij talabasi sifatida tasvirlangan

Bundan ko'rinib turibdiki, ingliz yozuvchilari asarlarida talabalarning turli xil turmush tarzi, oilaviy muhiiti, bilimi, o'y-fikri, davr muammolariga bog'lab yoritilganiga guvoh bo'lishi mumkin. Bir talabaning oilaviy ahvoli zo'r bo'lsa, bilimi va dunyoqarashi sustligi, ikkinchi talabaning oilaviy ahvoli yaxshi bo'lmasada, bilimi va aqli jihatdan ancha ustunligi tasvirlanadi.

Ikkinchi bobning uchinchi faslida "Ingliz adabiyotida talaba portreti va psixologiyasining realistik tasviri" yoritilgan bo'lib, unda asar qahramonlarining portreti bilan ularning dunyoqarashi va iste'dodlari hamohangligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, ingliz yozuvchisi Jorj Forsterning "Uzoq safar" ("Long journey") asaridagi talaba Rikki obrazi kamtarin, hayotda qiynalgan, ota-onasiz o'sgan yigit. Adib uning portretini tasvirlaganda bir oyog'i oqsoqlanishini va shu nuqsoni tufayli hayotga qiziqishi so'nganligini bildiradi.

Rikkining o'ziga yarasha qobiliyatlari juda ko'p edi. Shulardan biri uning yozuvchilik iste'dodiga egaligida ko'rinadi: "The rest of the year was spent by Rickie partly in bed,—he had a curious breakdown,—partly in the attempt to get his little stories published. He had written eight or nine, and hoped they would make up a book, and that the book might be called "Pan Pipes".¹⁶ Unga ammasi va xotini yordam berishga urinishar, lekin uning ishlarini chop qilish qo'llaridan kelmas edi.

Shuningdek, Donna Tartning "Sirli tarix" ("The Secret History") asarida turli xil qiyofadagi talabalar obrazini uchratish mumkin. yozuvchi talaba Xempdeni tasvirlar ekan, uning ko'pincha ziyolilarga xos ko'zoynak taqib yurishi, inglizcha orti kesilgan qora kostyum kiyib, uzun soyabon ko'tarib yurishiga urg'u qaratish orqali uning ingliz aristokratlari toifasiga mansubligiga ishora qiladi.

Psixologiya o'z ichiga asar qahramonlarining axloqiy tamoyillari, intilishlari, umidsizlik, xarakter, hayotga munosabat, qobiliyatlar, aql darajasi, shaxsiyat xususiyatlarini, ya'ni (introvert, ekstrovert) vositalarini o'z ichiga oladi. Masalan, Ivlin Voning "Yiqilish va yo'qolish" ("Decline and Fall") asaridagi Pol Pennifezer birmuncha vaqt saylovlarda munosib tirishqoqlik va ehtiyotkorlik bilan ovoz beradigan, balet va adabiy tanqidni boshqalarga qaraganda ancha puxta baholaydigan, aqlli, odob-axloqli, xorijiy tilni mukammal egallagan, qat'iyatli yigitlardan biri sifatida ko'rsatiladi.¹⁷

Ingliz romanlarida talabalarning ko'pchiligi xuddi shunday iste'dodli qiyofada, xususan, mahoratli yozuvchi sifatida tasvirlanadi. Masalan, Malkon Braberrining "Tarixiy shaxs" ("The History man") asari qahramoni sotsiologiya faniga qiziqishi, kitoblar yozib turishi aytiladi. "So Howard went on with the book, with a new urgency, and he finished it off quickly. Then he sent it off, without telling Barbara; and almost at once he got a contract and a very good advance for it from a well-known left-wing publisher, who proposed to do both a hardback and a cheap paperback edition, with extensive publicity".¹⁸

M.Braberrining "Tarixiy shaxs" ("The History man") asarining Govard ismli

¹⁶ Forster E.M. Long Journey. (Бесконечное путешествие). – <http://www.litru.ru>

¹⁷ Ивлин Во. Decline and fall. (Упадок и разрушение) – <http://www.litru.ru>

¹⁸ Malcolm B. The History man. –E.: Open Road Media, 2015. – 236 с. – Б.215.

yana bir qahramoni ingliz adabiyotida o'z kuchi bilan yaxshi o'qigan, sotsiologiyadan dissertatsiya himoya qilgan talaba obrazi ekani bilan ajralib turadi. Uning universitet hayotida erishgan ilmiy yutuqlari asarda alohida aytib o'tilgan: "But by now Howard was Dr Kirk; he had finished off his thesis, and been awarded his PhD for his long labors".¹⁹

"Universitet romanlar"ida yana shunday qahramonlar borki, ular o'zlarining iste'dodlarini yaxshilikka emas, balki yomon yo'llarga ham sarflaydilar. Masalan, Tobias Smolletning "Peregrin Piklning sarguzashtlari" asari qahramoni Peregrin talabalik davrida o'zining ustoziga kulgili ballada yozib, uni ishdan haydattiradi.

Xullas, asar qahramonining ichki dunyosiga kirib borish usullaridan biri alohida epizodlar, sahnalarning o'xshashligi va qarama-qarshiligiga yaqinlashish, syujet holatlarini takrorlash, xususan, tashqi syujet elementlaridan foydalanishdir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**O'zbek adabiyotida talaba obrazining poetik tadrijiy belgilari**" deb nomlangan bo'lib, uchta fasldan tashkil topgan. O'zbek she'riyatida talaba obrazi va hayoti talqining berilishi, bu mavzu she'riyatda ham dolzarbligini ko'rsatadi. Shartli ravishda "talabalik lirikasi" yoki "universitet lirikasi" deb yuritish mumkin bo'lgan she'riyatning bu turida quyidagilar talqini ayricha e'tiborni tortadi: talabalik lirikasida bu davr "oltin" sifati bilan epitetlanib, "oltin davr", "oltin davron" kabi metaforik birikmalar orqali, talabalarga nisbatan "gulxan xo'jasi, gulshan yaratuvchisi, qutlug' bulut" singari o'xshatishlarni qo'llanilgani, talabalar hayotiga oid so'zlarning she'riyatda qo'llanilishi, talabalarga maslahatlar beriladi. Aytaylik, Mirtemirning "Yorug' kunlar yetakchisi bo'l, o'g'lim" sochma she'rida talabalik baxtiga muyassar bo'lgan o'g'ilga otaning nasihati keltirilgan bo'lib, unda ota o'z o'g'lini katta umid bilan o'qishga jo'nayotganligi, pand-nasihatlari berilgan. Shuningdek, xotin-qizlarni ilmga jalb qiluvchi, talaba qizlarni madh etuvchi she'rlar.

Zulfiya o'zbek ayollari hayotini yaxshi biluvchi shoira hamda jurnalist sifatida dugonalari haqida she'r, publitsistik maqolalar yozar ekan, xotin-qizlarni hamisha ijtimoiy faollikka chaqirdi, insoniy haq-huquqlarining poymol bo'lmasligi uchun kurashga da'vatlantirdi. Uning "Do'stinga" she'rida ayolning quyoshi endi porlagani, u hamma sohaning egasi bo'la olishi, xalqiga va vataniga munosib avlod tarbiyalashini, yorug' kunlari hali oldinda ekanligini ta'kidlaydi.

Sen ona! Sen bitmas hayot bulog'i,
Jahonni bor etgan muhtaram omil.
Ulug' kelajakning yosh nihollari,
Sendan tarmoq yozib topar takomil.²⁰

Demak, shoira qancha iste'dodli xotin-qizlarning shunday o'z imkoniyat va qobiliyatlarini namoyon qilmasdan, bu olamni tark etganliklarini real ochib tashlagan.

Talaba obrazi she'riy dramalarda ham o'z talqinini topgan. Bu jihatdan Usmon Nosirning "Atlas" dramasini esga olish lozim. U talabalar va universitet hayoti

¹⁹O'sha asar. B.217.

²⁰Зулфия. Куйларим сизга. Шеърлар. – Т.: Тошкент бадиий адабиёт, 1965. – Б. 7.

tasvirlangan birinchi dramalardan hisoblanadi.

